
“KEKSALAR HAFTALIGI” KO‘TARINKI RUHDA O‘TMOQDA



Joriy yilning 3-9 oktyabr kunlari “Keksalarni e‘zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish – xalqimizga xos ezgu fazilat” g‘oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida “Keksalar haftaligi” o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Jamiyatimizdagi keksa avlod vakillarini e‘zozlash va qadrlash xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biridir. Doim e‘tiborimizda bo‘lgan keksa avlod vakillaridan yana bir bor xabar olish, ularni ziyorat qilish maqsadida Qo‘sh tepa tumanida qator tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda.



Shunday tadbirlardan biri, bugun Kattaboltako‘l, Vatan, Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Nuroniylar otaxonlar paxta dalasida” shiori ostida o‘tkazildi. Ko‘ngillilardan bo‘lib paxta-yig‘im terimida ishtirok etayotgan hasharchi nuroniylarga tushlik mahali osh damlanib xush kayfiyat ulashildi.

Xumdon mahallasida esa mahalla raisi va yoshlar nuroniylarning xonadonlariga tashrif buyurishib ularning xolidan xabar olishdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-04 15:40:21